

MUZEYLAR – MOZIY KO‘ZGUSI



Akmal, yaxshimisan?



Rahmat! Madina, biz muzeyga bordik!



Muzeyga?! U yerga nima uchun bording?



Nima deb o‘ylaysiz, Akmal Madinaga qanday javob beradi?



“Muzey” so‘zi qadimiy yunon tilidan olingan bo‘lib, “ijod, go‘zallik, san‘at maskani” degan ma‘noni bildiradi.



Muzeylarda ajdodlar hayoti, turmush tarzi, an‘analari, urf-odatlarini aks ettiruvchi osori atiqalar saqlanadi. Muzeylarda qadimgi dunyoning, o‘rta asrlar va yaqin o‘tmishning xotiralari, yodgorliklari, tarixiy hujjatlar, buyumlar va shu kabi eksponatlar namoyish qilinadi. Muzeyga borgan odam xuddi moziyga tushib qolgandek, o‘sha davrda yashayotgandek bo‘ladi. Eksponatlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, tariximiz haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. “Muzeylar nima uchun kerak?” degan savolga tariximizni bilish, qadrlash, tarixiy xotirani, ilm-fan, san‘at, madaniyatda erishgan yutuqlarimizni keyingi avlodlarga yetkazish uchun kerak, deb javob berish mumkin.



“O‘z o‘tmishi, tarixini bilmagan xalqning kelajagi bo‘lmaydi”.



Muzey xodimi Sarvar bilan Lolaga nima uchun tanbeh berganini bilasanmi?

Bilmasam, eksponatlarga qo‘li bilan tekkandir-da?



Yo‘q, qadimiy suratlarni telefonda rasmga olgan ekan. Bu esa mumkin emas.



Muzeylarda bir necha asrlardan beri avaylab saqlab kelinayotgan suratlar bo‘ladi. Bunday qadimiy buyumlar nihoyatda nozik, shu bois ular ehtiyot qilinadi. Telefon yoki fotoapparatlarning chiroqlari esa vaqt o‘tishi bilan eski suratlardagi tashqi qatlamning rangini o‘chirib yuborishi mumkin. Shuning uchun ba‘zi muzeylarga telefon yoki fotoapparat olib kirish, suratga olish taqiqlangan.





Muzeyda qanday tartib-qoidalariga rioya qilish kerak? Nima uchun? Tartib-qoidalar ro'yxatini tuzib, sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.



Ekspонат – bu ko'pchilik tomosha qilishi uchun muzey yoki ko'rgazmaga qo'yilgan buyum. Masalan, san'at asarlari, hujjatlar, hunarmandchilik mahsulotlari muzey ekspozitsiyasi bo'lishi mumkin.



Rossiyaning Sankt-Peterburg shahridagi mashhur Ermitaj muzeyida 3 150 428 ta ekspozitsiya bor. Ularning har birini hech bo'lmaganda bir daqiqadan ko'rib, muzeyni to'liq tomosha qilib chiqish uchun olti yil vaqt kerak bo'ladi.



Muzeydagi o'zingizga yoqqan birorta ekspozitsiya haqida hikoya yozing.



Muzeylardagi eksponatlar uzoq yillar davomida yaxshi saqlanib turadi, chunki mutaxassislar ularga maxsus ishlov beradilar. Muzey jamoat joyi sanalib, madaniy hordiq chiqarish maskanidir. Muzeyga borganda u yerdagi ichki tartib-qoidalarga rioya qilish kerak.

Muzeylarda turli kasb egalari xizmat qiladi:

- posbonlar eksponatlarni qo'riqlaydi;
- ilmiy xodimlar tadqiqotlar olib boradi, ilmiy anjumanlarda, seminar va ekspeditsiyalarda ishtirok etadi;
- ta'mirchilar shikastlangan eksponatlarni butlash, tiklash bilan shug'ullanadi;
- gidlar mehmonlarga muzeydagi eksponatlar haqida so'zlab beradi.



**Kichik guruhlarda muzey xodimlari nomidan
“Muzeyda bir kun” nomli qisqa hikoya tayyorlang.**



Muzeylar har xil bo'ladi. Tarix muzeylarida qadimiy osori atiqalar saqlanadi. San'at muzeylarida san'at asarlari, suratlar, haykallar namoyish qilinadi. Jonli tabiat muzeysi, astronomiya muzeysi, geologiya muzeylari ilmiy muzeylar hisoblanadi. Politexnika muzeyida fizika qonunlarining qanday ishlashini, dastlab ixtiro qilingan g'ildirakdan tortib, zamonaviy avtomobillargacha ko'rish mumkin. Mashhur insonlarning, masalan, taniqli yozuvchi, rassom yoki sozandaning hayoti va ijodiga bag'ishlangan muzeylar ham bor. Bunday muzeylarda o'sha insonning shaxsiy buyumlari, cholg'u asboblarni tomosha qilish, uning asarlarini tinglash mumkin.



Yaponiyada tezpishar ugralar muzeyi bor ekan. Bu muzeyda dunyoning turli chekkalaridan keltirilgan, ta'mi va shakli turlicha bo'lgan ugralar to'plangan. Maxsus xonada esa xohlaganlar alohida retsept bo'yicha ugra pishirishi ham mumkin.



Muzeylar haqidagi ma'lumotlarni o'qib chiqib, har bir ma'lumot bo'yicha savollar tuzing. Muzeylarda qanday o'xshashlik bor? Ular nimasi bilan farq qiladi? Shu haqida sinfdoshlaringiz bilan suhbatlashing.

Toshkentdagi O'zbekiston davlat san'at muzeyi

Bu muzeyga 1918-yilda asos solingan bo'lib, unda turli mamlakatlar, davrlarga oid noyob san'at asarlari jamlangan. Muzeyda gilamlar, sopol va chinni idishlar, milliy cholg'u asboblari, surat va haykallar namoyish qilinadi.



Mo'ynoqdagi Orol dengizi tarixi muzeyi



Bu muzeyga 1984-yilda Mo'ynoq tumanining Uchsoy qishlog'ida o'lkashunoslik muzeyi sifatida O'rinboy Eskirkepov tomonidan asos solingan. Muzey Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik falokat, mahalliy aholining hayoti va turmush tarzi haqida ma'lumot beradi. Ko'rgazmada rasmlar, fotosuratlar, hujjatli filmlar hamda arxiv

hujjatlari namoyish qilinadi. Shuningdek, muzeyda Orolbo'yining hayvonot va nabotot olami namunalari, Orol dengizi qurimasidan avval olingan go'zal fotosuratlar ko'rgazmaga qo'yilgan.

Buxoro davlat qo'riqxonasi-muzeyi



Ark qal'asi Buxoroning eng qadimiy inshootlaridan biridir. Ark majmuasi V asrda shaharning shimoli-g'arbidagi tepalikda qurilgan.

Bir paytlar Buxoro amirining qarorgohi bo'lgan bu qal'a bugungacha yaxshi saqlanib qolgan bo'lib, o'ziga xos muzey hisoblanadi.

Arkning qurilishi haqida xalq orasida bir afsona bor. Uni Siyovush degan yigit qaylig'i uchun qurgan, deyishadi. Hukmdor Turon Fragisiyag qizini Siyovushga bermaslik uchun bahona qilib, iloji yo'q ishni – bitta buqaning terisi ichiga qal'a qurishni buyuribdi. Zukko yigit esa buqa terisidan tasmalar kesibdi va ularni bir-biriga ulab, aylana shaklida mahkamlabdi. Keyin shu aylana ichiga Arkni quribdi. Noiloj qolgan hukmdor qizini topqir Siyovushga berishga majbur bo'libdi.



Yana qaysi muzeylarni bilasiz?
Qaysi muzeylarga borishni xohlaysiz?



O'zbekiston muzeylaridan biriga virtual sayohat tashkil qiling.